



## **THE CONCEPT AND IMPORTANCE OF PREMATURE PREVENTION OF JUVENILE DELINQUENCY**

**O.O.Shomurodov**

Ministry of internal affairs academy full-time education 1st course of  
study 107th group cadet

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1089332>

### **ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>th</sup> March 2024

Accepted: 28<sup>th</sup> March 2024

Online: 29<sup>th</sup> March 2024

#### **KEYWORDS**

*Violations among minors, young people, minors, subjects of prevention of offenses, uncontrollability among minors.*

### **ABSTRACT**

*The organization and improvement of the premature prevention of juvenile offenses in the article, the human factor is dominant in various spheres of public life today, especially since it is considered as one of the main tasks to protect the rights of minors, to raise their scientific, creative, intellectual potential, thereby increasing the number of offenses committed by minors, cases such as the popularization of deviant behavior among adolescents are written in a statement that all institutions of society operate in cooperation as a system on the issue of crime prevention.*

## **VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKARINI BARVAQT OLDINI OLISHNING TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI**

**Shomurodov O'tkirbek O'ktamjon o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 1-o'quv kursi

107-guruh kursanti, safdor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1089332>

### **ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>th</sup> March 2024

Accepted: 28<sup>th</sup> March 2024

Online: 29<sup>th</sup> March 2024

#### **KEYWORDS**

*Voyaga yetmaganlar, yoshlar, voyaga yetmaganlar o'rtaida huquqbazarliklar, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlari, voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik.*

### **ABSTRACT**

*Maqolada voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining barvaqt oldini olishni tashkil etish va takomillashtirish, bugungi kunda jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, ayniqsa, unda voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaralishi, shu bilan birgalikda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar sonining ortishi, o'smirlar o'rtaida deviant xulqning ommalashuvi kabi holatlar huquqbazarlik profilaktikasi masalasida jamiyatning barcha institatlari tizim sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi haqoda yozilgan.*



O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan qoidalarga qaraydigan bo'lsak:

voyaga yetmagan — o'n sakkiz yoshga to'limgan shaxs;

Ya'ni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi deganda bu voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarligini barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, profilaktik ishlarni tashkil etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi. Kriminologiya va huquqbazarliklar profilaktikasi nazariyasida uyushmagan yoshlar o'rtasida huquqbazarliklarning sabablari va sodir etishiga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbazarliklar profilaktikasi voyaga yetmaganlar bilan ishslash tizimini samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklar ko'rsatkichi salmoqli darajada kamayishiga erishildi.

Huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasi asosan insoning oilada, ta'limgacha va ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olish jarayonida, ularda odob-axloq qoidalariga, boshqa insonlarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, Konstitusiya va qonunlarga rioya etish, ularning talablariga itoatkorlik kabi shaxsni huquqbazarliklar sodir etishdan tiyib turadigan fazilatlarni shakllantirish orqali ta'minlanadi. Huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasi inson hayotining boshqa yo'naliishlari va keyingi bosqichlarida ham jamiyatdagi hayotiy zaruratlardan kelib chiqqan holda amalga oshirib boriladi.

*Huquqbazarliklarning barvaqt profilaktikasi* – insonlarni boshqalarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, odob-axloq qoidalariga, Konstitusiyasi va qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash, jamiyat (oila, jamoa, hudud, soha)dagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish, odamlarda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbazarlik sodir etishga yoxud uning jabrlanuvchisi bo'lishga moyillik shakllanishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ogohlantiruvchi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayoni. Ma'lumki, huquqbazar shaxsining ijtimoiy xavfli va aybli qilmishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni kriminologiya fani tadqiq etadi. Zero, jinoyat sodir etgan shaxslarni ilmiy jihatdan o'rganish o'zining mazmun va mohiyatiga ega bo'lib, mazkur ma'lumotlarni o'rganish asosida ushbu turdag'i huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish borasida profilaktik choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishning assosiy maqsadi – ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar va ulardag'i muammolar haqida tezkor xabardor



bo'lish, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarni barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashadirish hamda aholi o'rtasida huquqiy targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining barvaqt oldini olish bo'yicha vakolatlari subyektlar voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbazarliklarning sabab, shart-sharoitlari va ularga imkon berayotgan omillarni o'z vaqtida aniqlash, ularni bartaraf etish hamda kelgusida ularning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan faoliyat dastlabki profilaktika hisoblanadi.

Dastlabki profilaktika shaxsda jamiyatga zid qarashlarning paydo bo'lishi uning axloq va huquq normalariga zid qilmish sodir etishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonidir<sup>1</sup>.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining barvaqt oldini olishning tashkil etilishi *birinchidan*, jamiyatda zid turmush tarzi kechiruvchi shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar va voyaga yetmaganlarni o'z vaqtida aniqlashga, *ikkinchidan*, shaxsdagi g'ayriijtimoiy hulq-atvorni ijobiy tomonga o'zgartirishga hamda huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilishga, *uchinchidan*, fuqarolarni jinoyatlardan, shu jumladan turli ko'rinishdagi jinoyatlardan jabrlanishini oldini olishga, *to'rtinchidan*, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish va ularni oldini olishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy-huquqiy choralarini amalga oshirishga imkon beradi.

Yuqoridagi profilaktikaning maqsadi, huquqbazarliklarni oldini olish, ularning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuridik adabiyotlarda mazkur faoliyat "oldini olish", "yo'l qo'ymaslik", "profilaktika qilish" kabi atamalarda namoyon bo'ladi. Kriminolog olimlar Y.M.Antonyan va G.A.Avanesovning fikricha, "jinoyatchilikka qarshi kurash" yuqorida keltirilgan boshqa atamalarga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u davlat, jamoatchilik tomonidan jamiyat manfaatlarini jinoiy tajovuzlardan muhofaza qilishga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni qamrab oladi.

Huquqshunos M.Q.O'razaliyevning fikricha, jinoyatlarni profilaktika qilish jinoyatchilikning oldini olish faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanib, u jinoyatchilik sabablarini va unga imkon beruvchi shart-sharoitlarni, ularning ayrim guruhlari va jinoyatchilik turlarini izchil aniqlash va bartaraf etilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, ushbu faoliyatni tashkil etishdan maqsad, eng avvalo, huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, ularni zararsizlantirish, huquqbazarlik sodir etilishi mumkin bo'lgan shaxslarga ta'sir ko'rsatish hamda fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga qarshi qaratilgan turli tajovuzlarni oldini olishdan iboratdir.

Huquqbazarliklar profilaktikasi - huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbazarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbazarliklar umumiyl, maxsus, yakka tartibdag'i va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi.



Yuqoridagi profilaktik chora-tadbirlarni to'g'ri tashkil etilishi jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor I.Ismailov ta'kidlaganidek, jinoyatlarning oldini olish shunisi bilan afzalki, bu faoliyatga jinoyat sodir etgan shaxsning jazolanishi muqarrarligini ta'minlash uchun sarflanadigan ancha kam harajat qilinishi bilan bir vaqtida, insonni, ayniqsa yoshlarni jamiyatda o'z o'rnnini topishga, hayotda atrofidagi yaqin kishilari, boshqa insonlar va jamiyat uchun foydali bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanishga undaydi hamda uni amalga oshirishda ko'maklashadi.

Olima G.O'.Axmedovaning fikricha, jinoyatlarning oldini olish to'g'ri tashkil etilsa, mamlakatimizda jinoyatchilikning ahvolini tubdan o'zgartira olmasa ham, unga qarshi amaliy kurash muayyan jinoyatlar rivojlanishidagi salbiy omillarga amalda qarshilik ko'rsatish mumkin.

Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining barvaqt oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tuzilmalari va keng jamoatchilik bilan huquqbazarliklar profilaktikasini samarali amalga oshirish bo'yicha hamkorlikning yangi usul va shakllarini ishlab chiqib, bu boradagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki, barcha ichki ishlar organlari soxaviy xizmatlari o'rtasidagi hamkorliklarda ham huquqbazarliklar profilaktikasi bo'yicha asosiy ma'lumotlar jamoatchilikdan kelib tushadi.

Bu borada Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi. Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi bo'linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlaridan (bundan buyon matnda ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi deb yuritiladi) iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasida o'z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, salbiy hodisalarning barchasi, jumladan, jinoyatchilik ham ma'naviy-ma'rifiy qashshoqlik sharoitida vujudga keladi. Demak, huquqbazarliklarni barvaqt profilaktika qilish, unga qarshi kurashish, qonun ustuvorligini ta'minlash keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki har bir fuqaroning, davlat va jamoat tashkilotlarining eng muhim vazifasidan biriga aylanishi kerak. Tadqiqotchi E.Urdushev ta'kidlaganidek, huquqbazarliklar o'z o'zidan sodir etilmaydi. Asosiy masala huquqbazarlikning oqibati bilan kurashish emas balki barvaqt oldini olish, sabablarini o'z vaqtida bartaraf etishdan iboratdir. Mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, ya'ni "nima uchun mening mahallamda jinoyat sodir etilishi kerak" degan g'oyani fuqarolar ongiga singdirish bugungi kundagi islohotlarning asosiy mohiyatini o'zida ifoda etadi.

*Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning profilaktikasi* – bu, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlarining voyaga yetmagan qatlamida qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish,



voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarni barvaqt oldini olish, ushbu huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan profilaktik faoliyatdir.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini davlat hokimiyati organlari, huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi davlat organlari va muassasalari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni va oilalarni, ularni jinoiy faoliyatga jalgan etuvchi shaxslarni aniqlash, ular sodir etayotgan jinoyatlarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, shuningdek ular yashayotgan va ta'lif olayotgan joylarda ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish maqsadida amalga oshirilayotgan tarbiya, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy-huquqiy nazorat vositalari orqali profilaktik ta'sir choralarini qo'llashdan iborat davlat siyosati darajasida amalga oshiriladigan alohida faoliyat hisoblanadi.

Masala yechimi sifatida, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar va tahlillarga asoslangan holda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish hamda, huquqbazarliklar profilaktikasi subyektlarining voyaga yetmagan qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini shakllantirish, yoshlar o'rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, ushbu huquqbazarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo'lgan voyaga yetmaganlarni qayta tarbiyalash, voyaga yetmaganlarning huquqbazarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga yo'naltirilgan profilaktik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini amalga oshirishni tushunishimiz kerak.

## References:

1. O'zbekiston respublikasining qonuni voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida // Qonunchilik palatasi tomonidan 2010-yil 12-avgustda qabul qilingan, Senat tomonidan 2010-yil 28-avgustda ma'qullangan
2. *Ismailov I.* va boshqalar. Voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va huquqbazarligining oldini olish: O'quv-amaliy qo'llanma. / Mas'ul muharrir I.Ismailov. -T.: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, 2011. – B. 179.
3. *O'razaliyev M.Q.* Oilada voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning oldini olish: yurid. fan. nomz. diss-Y. -T., 2008. –B. 90.
4. *Axmedova G.O'.* Uyushgan guruqlar kichik tadbirkorlik sohasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish: yurid. fan. nomz. diss-Y. -T., 2006. –B. 101.
5. *Urdushev E.* Huquqbazarliklar profilaktikasi: tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik uchun. Huquq va burch. № 1 (145) / 2018. –B. 14.